

O'ZBEKISTON SSRDA SANOAT RIVOJINING GEOGRAFIK GEOGRAFIK OMILLARI

Rustamova Jasmina

Buxoro davlat Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola O'zbekiston SSR davrida sanoatning rivojlanishi va unga ta'sir ko'rsatgan geografik omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada sanoat korxonalarining shakllanishi va joylashuviga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy-geografik omillar izchil yoritiladi. O'zbekiston hududida xomashyo manbalarining (paxta, neft, gaz, kon metallari) mavjudligi, suv resurslari va yer relefining sanoat tarmoqlariga ta'siri tahlil qilinadi.

Sanoatning ixtisoslashuvi, jumladan, to'qimachilik, kimyo, konchilik va oziq -ovqat sanoati hududiy taqsimoti va rivojlanishi omillari, transport infratuzilmasining rivojlanishi, urbanizatsiya va sanoat markazlarining paydo bo'lishi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasiga qanday ta'sir ko'rsatgani o'rganiladi.

Maqola Sovet industrial siyosatining mahalliy geografik imkoniyatlariga moslashuvi va sanoatning rivojlanishida davlatning o'rni haqida ham fikr yuritiladi. Mustamlaka davri siyosatining oqibatlari, xususan, paxta yakkahokimligi va uning ekologik salbiy ta'siri, shuningdek, sanoat korxonalarining ixtisoslashgan hududlarda joylashtirilishi bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi.

Maqolaning yakunida sanoat rivojlanishining O'zbekistonning keyingi iqtisodiy va ekologik taraqqiyotga ta'siri haqida xulosalar keltiriladi.

KALIT SO'ZLAR: sanoat rivoji, geografik omillar, O'zbekiston SSR, xomashyo bazasi, transport, ixtisoslashuv, urbanizatsiya, ekologik ta'sir.

Абстракт: Данная статья посвящена анализу развития промышленности в период Узбекистанской ССР и географическим факторам, оказавшим на это влияние. В статье последовательно выделены природные, экономические и социально-географические факторы, влияющие на формирование и размещение промышленных предприятий, наличие сырья (хлопок, нефть, газ, добыча металлов), водных ресурсов и влияние рельефа местности. По отраслям промышленности анализируются на территории Узбекистана.

Отраслевая специализация том числе будут изучены факторы территориального размещения и развития текстильной, химической, горнодобывающей и пищевой промышленности, развития транспортной инфраструктуры, урбанизации и возникновения промышленных центров.

Также в статье рассматривается адаптация советской промышленной политики. местным географическим возможностям и роль государства в развитии промышленности. Анализируются последствия колониальной политики, в частности хлопковой монополии и ее негативное воздействие на окружающую среду, а также проблемы, связанные с размещением промышленных предприятий в специализированных районах.

В конце статьи сделаны выводы о влиянии промышленного развития на дальнейшее экономическое и экологическое развитие Узбекистана.

Ключевые слова: промышленное развитие, географические факторы, Узбекская ССР, сырьевая база, транспорт, специализация, урбанизация, воздействие на окружающую среду.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the development of industry during the Uzbekistan SSR and the geographical factors that influenced it. In the article, the natural, economic and socio-geographical factors affecting the formation and location of industrial enterprises are consistently highlighted. The availability of raw materials (cotton, oil, gas, mining metals), water resources and the influence of land relief on the industrial sectors in the territory of Uzbekistan are analyzed.

Industry specialization including factors of regional distribution and development of textile, chemical, mining and food industry, development of transport infrastructure, urbanization and the emergence of industrial centers, how it affects the socio-economic geography of Uzbekistan. The article also discusses the adaptation of the Soviet industrial policy to local geographical opportunities and the role of the state in the development of industry. The consequences of the colonial policy, in particular, the cotton monopoly and its negative environmental impact, as well as problems related to the placement of industrial enterprises in specialized areas, are analyzed. At the end of the article, conclusions are made about the impact of industrial development on the further economic and ecological development of Uzbekistan.

Key words: promyshlennoe razvitie, geografiskie faktori, Uzbekskaia SSR, raw material base, transport, specialization, urbanization, management and environment

METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib unda O'zbekiston SSR da sanoat rivojlanishining geografik omillari tahlil qilinadi.

TADQIQOT NATIJALARI:

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O'zbekiston SSR) davrida sanoat rivoji katta ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri hisoblangan. O'zbekiston SSR sanoati asosan sanoatlashtirish siyosatining bir qismi sifatida boshlangan va respublika iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Quyida ushbu jarayonning asosiy jihatlari va geografik ta'siri bayon qilinadi. O'zbekiston SSR sanoati asosan Sovet davrida rivojlanib, respublikadagi tabiiy resurslar va iqlimiy sharoitlardan foydalanishga asoslangan edi. 1920-yillardan boshlab Sovet Ittifoqida keng qamrovli sanoatlashtirish dasturi amalga oshirila boshladi, bu jarayonda O'zbekiston SSR ham faol ishtirok etdi. Paxtachilik va yengil sanoat: O'zbekistonning paxta yetishtirish salohiyati respublikani Sovet Ittifoqining asosiy paxta yetkazib beruvchisiga aylantirdi. Paxtaga asoslangan yengil sanoat, ayniqsa to'qimachilik korxonalari rivojlantirildi. [1]

Energetika sanoati mamlakatning ko'mir, neft va tabiiy gaz zaxiralari xalq xo'jaligi va og'ir sanoatning rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'ldi. Ayniqsa, Buxoro va Farg'ona vodiysida ko'mir qazib olish va neft ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1940-yillarda O'zbekistonda mashinasozlik, metallurgiya va kimyo sanoati yo'lga qo'yildi. Toshkent, Farg'ona, Chirchiq kabi yirik sanoat markazlari paydo bo'ldi va rivojlandi. [1] Sovet davrida kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqarishning o'sishi ham kuzatildi.

O'zbekiston SSRda sanoatning rivojlanishi geografik jihatdan ham muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Toshkent, Samarqand, Andijon va Buxoro kabi yirik shaharlar sanoat markazlariga aylandi. Bu esa urbanizatsiya darajasining oshishiga va aholi zichligining ko'tarilishiga olib keldi. Sanoatlashtirish bilan bog'liq holda qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalar va suv

resurslaridan haddan ziyod foydalanish, ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida ekologik muomalarni keltirib chiqardi. Bu Orol dengizining qurib qolishi va tabiat ifloslanishiga olib keldi [1].

Sanoat korxonalari asosan muayyan bir hududda joylashtirish juda murakkab masalalardan biridir. Bu borada ko'plab tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish lozim. [2] Avvalo sanoat korxonalari qanaday xomashyo asosida ishlab, qanday sanoat xomashyosi asosida ishlab qanday tayyor mahsulot ishlab chiqarishi aniqlanadi. Atmosfera havosi va suv havzalariga qanday chiqindilarni chiqarishi, bu chiqindilarning kimyoviy tarkibi zarar yetkazish darajasi e'tiborga olinadi. Sanoat korxonasiga tegishli bu masalalar jiddiy tahlil qilingandan so'ng hudud tanlanadi. [2] Tanlangan hudud korxonani joylashtirish va uning muntazam faoliyat ko'rsatishi uchun har jihatdan qulay bo'lishi lozim. Dastlab korxona joylashtiriladigan hududning o'rni, relyefi, uni tashkil qilgan yotqiziqlar tarkibi, yerosti suvlari me'yori, iqlimi(ayniqsa, shamol yo'nalishi, yer usti suvlari xususiyatlari, tuproq va o'simlik qoplamalari, aholi yashash joylari o'rganiladi.

O'zbekiston SSR da qishloq xo'jaligini zo'ravonlik bilan kollektivlashtirish jarayonida 1928-yili sanoatni industralshtirish ham amalga oshirildi. Aslini olganda mamlakatning markaziy organlari tomonidan 1925-yil dekabrda bo'lgan VKP(b)XIV syezdida O'zbekiston SSR da iqtisodiyotni rivojlantirishning hal qiluvchi vositasi sifatida Sotsialistik industrlashtirishga o'tish ommaviy tarzda e'lon qilingan edi. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti zamonaviy sanoatni vujudga keltirishga bevosita bog'liq edi. Bu maqsadga tez muddatda erishishning aniq yo'llarini ishlab chiqishi talab etilardi. [3]

O'zbekiston uchun sanoat qurilishini keng sur'atda jadallashtirish nihoyatda zarur edi. Chunki respublika iqtisodiyoti bu davrda ham agrar xususiyatga egaligicha qolayotgan edi. 1927-yilda O'zbekiston SSR xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining salmog'i 62, 6%ni tashkil etar, shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning salmog'i 37, 4%ni tashkil etar, shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning 90%qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlashga asoslangan edi. Iqtisodiyot xomashyo yo'nalishida bo'lgani sababli respublika sanoati faqat bir tomonlama ixtisoslashtirilayotgan edi. Buning ustiga industralashtirish siyosati qishloq hisobidan amalga oshirildi. [3] Qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxлари pasaytirildi. Natijada dehqonlar qashshoqlashib, mamlakatda oziq-ovqat muommosi keskinlashdi. Birinchi besh yillik davrida (1928-yil oktyabr-1932-yil dekabr)O'zbekistonda 289ta yangi sanoat korxonasi qurildi va ishga tushirildi, 79ta korxona qayta tashkil etildi. Yengil sanoatning ko'nychilik, poyabzal ishlab chiqarish, tikuvchilik sohalari va ip -gazlama ishlab chiqarish sur'atlari oshib bordi. Industralashtirish O'zbekistonda dastlab sekinlik bilan amalga oshirildi. Ana shu davrda O'rta Osiyo respublikalarida paxtachilik va mashinasozlik sanoatining to'ng'ichi bo'lgan Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodi barpo etildi. Toshkent to'qimachilik kombinati va Chirchiq elektr kimyo kombinati qurilishi tez sur'atlar bilan olib borildi. Elektr stansiyalari quvvati 482mln kilovattga yetdi. XX asr 30-yillarida Chirchiq-Bo'zsuv GESlar kaskadi barpo etildi. [3]

O'zbekistonda sanoat korxonalarining texnik darajasi past, muhandislar, texniklar va zamonaviy texnikani biladigan malakali ishchilar nihoyatda yetishmas edi.

Turkiston qishloq xo'jaligida bo'lgani kabi uning sanoatida ham 1920- yilga kelib chuqur inqiroz yuz berdi. Ayniqsa, qayta ishlash, qazib chiqarish tarmoqlari(neft, gaz, kon metallari) va transport butunlay izdan chiqqan edi. O'lka sanoati yalpi mahsulotining umumiy hajmi 1920-

yilda 1914-yildagiga nisbatan 80%kamaygan edi, paxta, sho'lx, paxta yog'i ishlab chiqarish 17 baravar pasayib ketgandi[4]Temir yo'llari paravozlarining beshdan bir qismi zo'rg'a ishlayotgan edi. Toshko'mir va neft qazib chiqarish esa kundalik ehtiyojni ham qoplamas edi.

Yangi iqtisodiy siyosat islohotlarini sanoat sohasida qo'llanilishining tarkibiy elementlaridan biri lenincha davlat kapitalizmi g'oyasi edi. U xo'jalik yuritishning nosotsialistik shakllarini vaqtincha tiklashni nazarda tutardi, biroq muhim sohalar, birinchi navbatda yirik sanoat Sotsialistik qayta qurishning asosiy ijrochisi, mulkdori va boshqaruvchisi bo'lgan davlat qo'lida saqlanayotgan edi. [4]

Sanoat ishlab chiqarishning Sotsialistik sektorida yetakchi bo'lgan, , yangi iqtisodiy siyosat yo'nalishi"sanoatda va korxonalarda qat'iy rejalashtirishni va xo'jalik hisobini joriy etish asosida boshqaruvni keng miqiyosida qayta qurishga qaratiladi, u so'm bilan nazorat qilishini va ishlab chiqarish demokratiyasini bir qadar kengaytirishni ta'minlar edi. [10]

1921-yilda sanoatga rahbarlik qilishni qayta tashkil etish amalga oshirildi. Uning asosiy mohiyati yirik va muhim korxonalarga ishlab chiqarishni markazlashtirishdan iborat edi. Bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar birlashtirildi, foyda keltirmaydigan korxonalar esa yopildi. [4]

Energetika iqtisodiyotining asosini yirik issiqlik elektr stansiyalari tashkil etgan shulardan: Sirdaryo DUK, Angren DUK, Novoangrenskaya GES, Toshkent DUK, Navoiy DUK va boshqalar; Chirchiq daryosidagi Chirchiq-Bo'zsuy GES kaskadi (Chorvoq GESi, Xodjикent GESi, G'azalkent GESi va boshqalar), Sirdaryodagi Farhod GESi, Amudaryodagi Tuyamuyun irrigatsiya-energetika majmuasi va boshqalar. Gaz sanoati ham yaxshi rivojlangan bo'lib hududdagi asosiy ishlab chiqarish hududlari Buxoro (Gazli va boshqa konlar) va Qashqadaryo (Muborak, Sho'rtan) viloyatlari hisoblangan. Neft (Farg'ona vodiysi, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari), qo'ng'ir (Angren) va qattiq (Surxondaryo viloyatidagi Sharg'un koni) ko'mir qazib olingan. Qo'rg'oshin- rux, volfram — molibden va mis rudalari (Qoramazor konlari guruhi va boshqalar), oltin (Navoiy, Jizzax viloyatlari va boshqalar) qazib olingan.

Rangli (Toshkent viloyatining Olmaliq, Chirchiq tumanlari) va qora metallurgiya (Toshkent viloyatining Bekobod tumani) rivojlangan. Kimyo sanoatida paxtachilik uchun mineral o'g'itlar (azot va fosfor) ishlab chiqarish (Chirchiq, Qo'qon, Samarqand, Farg'ona, Olmaliq, Navoiy) ayniqsa ajralib turdi; kimyoviy tolalar ishlab chiqarish (Farg'ona); plastmassa (Farg'ona, Jizzax va boshqalar), rezina buyumlar, maishiy kimyo va boshqalar. Mashinasozlikning asosiy tarmoqlari: qishloq xo'jaligi (paxta yetishtirishni kompleks mexanizatsiyalash uchun mashina va mexanizmlar, paxta terish kombaynlari va boshqalar), traktorlar ishlab chiqarish, paxta tozalash va to'qimachilik sanoati uchun asbob-uskunalar, qurilish va yo'l mashinalari, elektrotexnika sanoati; aviatsiya, radioelektron va priborsozlik sanoati, kimyo va neft mashinasozligi rivojlangan. Asosiy markazlari: Toshkent, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Andijon viloyatlari hisoblanadi. [4]

Qurilish materiallari korxonalar:i sement, asbest-sement quvurlari, shifer, kulolchilik, devor materiallarini ishlab chiqargan (Bekobod, Oxangaron, Angren, Navoiy, Toshkent va boshqalar). O'z vaqtida O'zbekiston SSR hududida shlab chiqarish salmog'iga ko'ra eng yirik sanoat korxonlari yaratilgan[2]. Jumladan, o'sha vaqtda 7 ta eng yirik korxonalar mavjud edi. Ular, Olmaliq tog' kon metallurgiya korxonasi, Chirchiq elektro kimyo kombinati, Farg'ona azot zavodi, Navoiy kimyo kombinati, Navoiy tog' kon metallurgiya kombinati, Jizzax plastmassa turbalar zavodi, Toshkent qishloq xo'jali mashinasozligi zavodlari sanalgan. [5]

Sanoatda muhim o‘rinni an‘anaviy sanoat tarmoqlari egallagan edi: yengil sanoat — paxta, ipak pilla, jun, boshqoq ekinlari, teri xomashyosi, qorako‘l terisi va birlamchi qayta ishlash; paxta (Toshkent, Andijon, Buxoro, Farg‘ona va boshqalar) va ipak (Marg‘ilon, Namangan va boshqalar). gazlama, poyabzal, tikuvchilik, gilam ishlab chiqarish. Oziq-ovqat va aromatizatsiya sanoati (moy-moy sanoati — asosan paxta chigitidan moy ishlab chiqarish, meva-sabzavot konservalari, yog‘ va pishloq, sut, go‘sht va boshqalar). [5]

Sobiq Sovet Ittifoqining mustamlaka davlatlarini hududiy chegaralanishi 1924-yildan so‘ng, bu hududlarda ishlab chiqarish sohalarini turli yo‘nalishlarda rivojlantirish va aholining ishchi kuchi sifatidagi faoliyatini maksimal darajada foydalanish rejasiga ko‘ra ipakchilik ham to‘qimachilik sohasi singari keng tarmoqda rivojlanish asoslarini yaratdi. [6]

Pilla yetishtirish sohasining tarmoqlarini uzviyrivojlantirish barobarida 1927-1932-yillarda Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon shaharlarida ham pillakashlik fabrikalari qurildi. Ayni paytda pillakashlik fabrikalarini rivojlantirish barobarida 1927-1932-yillarda Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon shaharlarida ham pillakashlik fabrikalari qurildi. Ayni paytda pillakashlik fabrikalarida olingan ipak toladan shoyi to‘qish ham rivojlandi. Marg‘ilon atlas (1925), Namangan gazlamalar (1925), Marg‘ilon shoyi (1928), Samarqand shoyi (1934), Qo‘qon shoyi to‘qish fabrikasi (1926)ishga tushirildi. 1937-yilga qadar shoyi gazlamalar tabiiy ipakdan tayyorlanar edi[6]. Kimyo sanoatining rivojlanishi natijasida sun‘iy ipak gazlamalar to‘qish ham keng taraqqiy etdi. Ipakchilik sohasida Butunittifoq ko‘rgazmalar tashkil etilgan edi. [11]. Masalan 1940-yilda 15-maydan 15-oktyabrgacha Moskvada qishloq xo‘jalik maxsulotlari ko‘rgazmasida O‘zbekistondagi ipakchilik sohasining vakillaridan Lenin nomli kolxoz a‘zosi Yusup Rasulov erishgan yutuqlari ish uslublari bilan ishtirok etgan edilar. [6]

Bundan tashqari Jvirblis, Suxanov, Tubalovlar ham ishtirok etgan edilar. Tabiiy ipak matosi har qaysi davr uchun muhim va o‘z qimmatini saqlab qoladigan, xaridorgir xomashyodir. [6]

O‘zbekiston SSR davrida urbanizatsiya (shahar aholisi ulushining oshishi) sanoat rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Urbanizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq holda sanoat korxonalari va infratuzilma rivojlantirilgan va shaharlar aholisi ortib borishi kuzatilgan. [7]

Sanoat markazlarining shakllanishi O‘zbekiston shaharlarida sanoat korxonalari barpo etilishi, asosan, aholini ish bilan ta‘minlash va iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Navoiy va boshqa shaharlar sanoat markazlariga aylangan. [7] Mehnat resurslarini shakllantirish shahar aholisi oshishi mehnat resurslari bilan ta‘minlash imkonini yaratgan. Urbanizatsiya tufayli qishloq hududlaridan shaharlarga kelgan aholi orasidan sanoat korxonalarida ishlaydigan kadrlar yetishtirilib, iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatgan. . Infratuzilmaning rivojlanishi: Urbanizatsiya jarayonida shahar infratuzilmasi, jumladan, transport, energetika va uy-joylar bilan ta‘minlash tizimi kengaytirilgan. Bu esa sanoat ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil qilish va mahsulotni ichki va tashqi bozorga yetkazib berishda muhim rol o‘ynagan. Iqtisodiy o‘sish va ichki bozorni kengaytirish: Urbanizatsiya tufayli ichki bozor ham kengayib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talab oshgan. Bu esa sanoatning yanada kengayishiga turtki bergan. Ijtimoiy muammolar urbanizatsiyaning o‘shishi bilan shaharlar aholisi ortib borishi oqibatida uy-joy tanqisligi, ekologik muammolar va transport infratuzilmasiga yuklama oshishi kabi qiyinchiliklar ham yuzaga kelgan. [7] .

1941 -yil sentyabr-dekabr oylarida respublika hukumati xalq xo‘jaligini harbiy izga solish, qaysi korxona qachon ishga tushirilishi to‘g‘risida, ichki resurslarini to‘la safarbar etish to‘g‘risida aniq vazifalarni belgilab berdi. [8]

Kadrlar, sanoat xomashyosi, yoqilg'i, stanoklar, uskunalar keskin yetishmasligiga qaramay, 1941-yil dekabrda kelib Toshkentdagi 63ta respublika hududidagi 230ta sanoat korxonalari mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi. Ko'chirib kelingan zavodlar ham o'z quvvatini oshirib bordi. 1941-yil 14-dekabrda harbiy korxonalar xodimlari urushga safarbar qilinganlar qatoriga qo'shildi va shu korxonalarga birlashtirildi. Mehnat intizomini buzganlar qattiq jazolanadigan bo'ldi. [8] O'zboshimchalik bilan korxonadan ketib qolganlarga 5 yildan 8 yilgacha qamoq jazosi belgilandi.

O'zbekistonda 1942-yili yangi sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 2 baravar ko'paydi. 1943-yilda esa sanoatning respublika xalq xo'jaligidagi salmog'i 75% foizgacha ortdi. Harbiy ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib borish zaruriyati sanoat qurilishini tobora ko'paytirishni talab qilar edi. . Urush yillarida O'zbekistonda 7ta yirik gidroelektrostansiyalar, jumladan Oqqovoq, Qibray, Salor va Farhod GESlari qurildi, yangi ko'mir va neft konlari ochildi, eskilardan ko'proq foydalaniladigan bo'lindi. 1944-yil martda Bekobodda O'rta Osiyoda dastlabki zamonaviy metallurgiya kombinati-O'zbekiston metallurgiya zavodining birinchi navbati ishga tushirildi. [8] Farg'ona viloyati 1941-yilda uch qismga Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlariga bo'lingan. Bu jarayon endilikda 3 ta hududning alohida -alohida muammosiga aylandi. Hududlarning sanoat yo'nalishidagi rejalari alohida tahlil etilishi hisobidan ulardagi faollik keskin oshirildi. [9]

O'zbekiston sanoatining yalpi mahsuloti ishlab chiqarish 1950-yilda urushdani 1940-yildagiga nisbatan 83foizga oshdi. Urushdan keyingi yillarda kapitalistik mamlakatlarda sanoat mahsuloti unchalik tez rivojlanganligi ko'zga ko'rinmaydi. Mahsulotlarni 1940-yilda ishlanganlari bilan 1950-yildagisi bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ipak xomashyosi 693 tonnadan 850 tonnaga (1, 5), shoyi gazlama 4, 5 ming metrda 14 ming metrga (3, 1), poyafazal 3338 ming juftdan 6150 juftga oshdi. [9]

Xulosa va takliflar: Sanoat rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyoti va ekologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan sanoat sektori milliy yalpi ichki mahsulot (YalIM)ni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport hajmini ko'paytirishga yordam beradi. Sanoatning rivojlanishi bilan O'zbekistonda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyati kengayadi, bu esa mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Ekologik jihatdan esa sanoat rivojlanishi ba'zi salbiy ta'sirlar keltirib chiqarishi mumkin, masalan, atmosfera ifloslanishi, suv resurslari ustida ortiqcha yuklama va tuproqni ifloslantirish. Agar sanoat korxonalari ekologik talab va standartlarga rioya qilmasa, bu salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishda ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish zarur.

Davlatning "yashil iqtisodiyot"ga o'tishi va ekologik xavfsizlikka e'tibor qaratishi sanoat rivojlanishini ekologik barqaror yo'nalishda olib borishga yordam beradi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki sog'lom ekologik muhitni saqlashga ham xizmat qiladi.

Hozirgi kunda sanoatni rivojlantirishda geografik omillarni hisobga olgan holda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu takliflar muayyan mintaqalarda sanoat rivojlanishini rag'batlantirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mintaqaning tabiiy resurslarini chuqur tahlil qilib, sanoatni xomashyo manbalariga yaqin joylashtirish kerak ekanligi va energiya va xomashyo ta'minotini diversifikatsiya qilish uchun quyosh, shamol va biomassa

kabi qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish kerak ekanligi, hozirgi kunda sanoatni rivojlantirish uchun muhim talablardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat:

1. Zamonov, A. Rajabov, Q. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Toshkent: 2017, B. 68-69.
2. Jumamurotov, E. Sanoat korxonalarini joylashtirishda geografik o'rning dolzarbligi. Urganch: 2023.
3. Sharipova, P. Buxoro viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishda yengil sanoatning o'rni. Buxoro: 2023.
4. O'zbekistonning yangi tarixi (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida). Toshkent: 2000, B. 188-189.
5. Botirova, N. O'zbekistonda SSR davri sanoat rivojlanishining turli masalalari tahlili. Maqola.
6. Бердинцев, К. Н., Десятчиков, Б. А. Ўзбекистон саноати 40 йил ичида. Тошкент: 1957, Б. 41.
7. Ahmadaliyev, Y. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Toshkent: Noshir, 2019, B. 130.
8. Raximova, G. S. XX asrning 50-90 yillarida Farg'ona vodiysi sanoat rivojining ekologik holatga ta'siri. Toshkent: 2018.
9. Юлдошева, Б. М. (2020). XX АСРНИНГ 80-ЙИЛЛАРИДА АТРОФ-МУҲИТ МАСАЛАСИГА ЁНДАШУВЛАР ТАРИХИДАН (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1№ 4).
10. Mirjonovna, Y. B. (2021). The influence of arab caliphate on formation of bukhara urban culture. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(08), 28-32.
11. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
12. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17.
13. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржонова Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
14. Mirjonovna Y. B., Mirshod S. Ancient Bukhara winds: useful, but destructive //Journal For Innovative Development in Pharmaceutical and Technical Science (JIDPTS). – 2021. – Т. 4. – №. 03.
15. Yuldosheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
16. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.

17. Yuldosheva, B. (2023). ORTA OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY TARIXIY GEOGRAFIYASI ANNOTATSIYA. "Экономика и туризм" международный научно-инновационный журнал, 6(14).
18. Yuldosheva, B., & Razikova, M. (2023). XORAZMSHOHLAR DAVLATINING TARIXIY GEOGRAFIYASI. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 420-422).
19. Yuldosheva, B. M. ., & Islomova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszłości*, 41, 132–135.
20. Yuldosheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOYIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje*, 41, 356–359.
21. Bibirajab Yo'ldasheva, & Sharipova Parizod. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O'rni. *Miasto Przyszłości*, 41, 424–429.
22. Yuldosheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O'RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 9-13.
23. Yuldosheva, B., & Rahmatova, F. (2023). SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 205-208.
24. Bibirajab Yuldosheva, & Gulniso Rashidova. (2023). BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA ELCHILIK MUNOSABATLARI (XVIII ASRDA). "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 1, 348–351.
25. Yuldosheva, B. (2024). The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 84, p. 01039). EDP Sciences.
26. Bibirajab, Y., & Niginabonu, S. (2024). Historical Geography of Amir Timur State. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(1), 7-10.
27. Bibirajab, Y., Jo'rayeva, D., & Ahmadjon, A. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA TOMORQA XO'JALIGINING RIVOJLANISHI. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 287-290.
28. Bibirajab Y., Umid R. CHIG'ATOY ULUSI DAVRIDA MOVOROUNNAHRDA YER VA SUV MUNOSABATLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 47. – C. 299-303.
29. Yuldosheva, B., & Hazratov, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN AGRAR TADBIRLAR. *IQRO INDEXING*, 9(2), 398-404.
30. Yuldosheva B., Cho'lliyeva Y. CHOR ROSSIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA O'RTA OSIYODA YERGA EGALIK QILISH MUNOSABATLARI //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 48. – C. 1196-1202.
31. Bibirajab Y., Dilnoza Y. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YER-SUV MUNOSABATLARI //IQRO INDEXING. – 2024. – T. 9. – №. 2. – C. 499-505.
32. Yuldosheva B., Erkinova N. O 'ZBEKISTONNING TABIIY TARIXIY GEOGRAFIYASI (1925-1991-YILLAR) //IQRO INDEXING. – 2024. – T. 9. – №. 2. – C. 631-634.
33. Yuldosheva B., Sobirov F. MARKAZIY OSIYODA ILK O'RTA ASRLAR DAVRIDA YER-SUV MUNOSABATLARI //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 54. – №. 1. – C. 50-56.
34. Yuldosheva B., Baqoyev U. BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASI YER-SUV MUNOSABATLARI TARIXI. – 2024.